

OBUNA
INDEKSI:
882

ERKATOY

Bolaligim – poshsholigim!

MAKTAB-BILIM MASKANI

№9(12). 2014 y.
sentabr

KUTIB OLING,
INGLIZ TILIDAGI
“ERKATOY” JURNALI!

O'YINLAR

ERTAKLAR

SCALLYWAG



BUGUNGI BOLALARGA HAVASIM KELADI



Aziz bolajonlar! Mehmonimiz shoira, yozuvchi, “Gulxan” jurnali bosh muharriri Zahro Hasanova o‘zi haqida sizga so‘zlab beradi.

1962 yili Toshkent shahri-ning Labzak dahasida tug‘ilganman. 1969 yili 1-sinfga o‘qishga borganman. Oilada besh qiz, bir o‘g‘il katta bo‘lganmiz. Maktabda faqat yaxshi baholarga o‘qiganman. “O‘qish kitobi” dagi o‘zimga yoqqan she‘rlarni bir pasda yodlab olardim. Bundan tashqari musiqa darsida qo‘shiq aytishni juda yaxshi ko‘rardim.

Bayramlarda faol qatnashardim. Qo‘shiq kuylashni, she‘r aytishni yaxshi ko‘rganim uchun tadbirlarning yetakchisi men bo‘lardim. Bolaligimda rasm chizishni bilmasdim. Ikki yosh katta opamga yulvorib o‘tirardim. Opam “o‘zing chiz”, deb unamasdi. Sinfimizda yaxshi rasm chizadigan ikki-uchta bola bor edi, ularga havasim kelardi. “Nega men chizolmayman” deb o‘zimdan xafa bo‘lib ketardim. Ko‘p urinib, mashq qilib ko‘rganman, biroq chizolmaganman. Lekin yaxshi rasmlarni ajrata olaman, ranglarni farqiga boraman. Onam 14-maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars berar edilar. Shuning uchun uyimizda badiiy kitoblar ko‘p edi. “O‘zbek xalq ertaklari”, “Jahon xalqlari ertaklari” ni opa singillarim

bilan galma-gal o‘qir edik. “Bo‘ri bilan tulki” degan muqovasi kichik ertaklardan iborat kitobni qayta-qayta o‘qishni yaxshi ko‘rardim. Onam shoir Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” she‘riy ertagini yoddan aytib bersalar, jon qulog‘im bilan tinglardim. Chunki onam she‘rlarni juda chiroyli ohang bilan o‘qir edilar. 5-6- sinflarda o‘qiyotganimda esa, X.Olimjonning “O‘zbekiston”, G‘afur G‘ulomning “Sen yetim emassan” singari katta she‘rlarini hech tutilmay yod aytib beradigan bo‘ldim. Onamizdagi kitobga bo‘lgan mehr-muhabbat meni adabiyotning sehrli olamiga yetakladi. Yodlagan she‘r va qo‘shiqlarim so‘z boyligimni oshirdi. Men ham she‘rlar yoza boshladim. Birinchi she‘riy mashqni 5-sinfda o‘qiyotganimda va “Onamga” deb atadim. U mana bunday boshlanardi:


Mening onam muallima,
Maktabda dars beradi.
Men ham xuddi onamdek.
Ustoz bo‘lgim keladi.

Ilk mashqlarimni onam ko‘rib berganlar. Lekin to katta bo‘lgunimcha gazeta va jurnallarda chop etilmagan. Bugungi bolalarga juda havasim keladi. Chunki ularga mos rang-barang kitob va jurnallarning soni ham, sifati ham ko‘paymoqda.

ALUETA



R.ABDURAIMOV she'ri,
R.ABDURAIMOV musiqasi.



1. Alueta, little Alueta,
Put your finger on your head.
On your head, on your head,
Don't forget, Alueta.

Alueta, little Alueta,
Put your finger on your nose.
On your nose, on your nose,
Don't forget, Alueta.

2. Alueta, little Alueta,
Put your finger on your nose.
On your head, on your nose,
Don't forget, Alueta.

Alueta, little Alueta,
Put your finger on your chin.
On your head, on your chin,
Don't forget, Alueta.



TULKINING JAZOSI



Kunlarning birida bir gala tovuq tulkining ustidan ayiqqa arz qilib boribdi.

- Taqsir, tulkining dastidan kun ko'rolmayapmiz. U hech kimdan tap tormaydi. Hatto sizning ham yuz xotiringizni qilib, bir og'iz so'ramay, tovuqlarni qirgani-qirgan.

- Voy, yaramas-ey, - debdi ayiq g'azablanib. - Men u muttahamning ta'zirini beraman.

U darrov tulkini chaqirtirib kelibdi.

- Men sizning biqiningiz yerga botmasin deb paryostiqlik qilish tashvishi bilan yurgan edim, - debdi tulki va qo'ltig'idagi yostiqni darrov ayiqning yonboshiga qo'yibdi. - Bu miyasi yo'q tovuqlar sizning g'amingizda yurganimni bilmay, ustimdan arz qilishibdi.

Ayiq yostiqqa suyanib, tovuqlarga o'shqiribdi.

-Qani, ko'zimdan yo'qolinglar. Ikkinchi bunaqa bema'ni gap bilan miyamni qotirmanglar.

Shu kuni kechasi yana ikki tovuqning sho'ri quribdi. Tovுqlar endi bo'ringning oldiga arzga borishibdi.

- Tulkining dastidan aziyat chekayapmiz. Yordam bering, - deyishibdi ular. Bo'ri shu zahoti tulkini

topdirib kelibdi.

- Bo'ri janoblari, men tuni bilan mijja qoqmay sizga paryostiqlik tayyorladim, - tulki bo'ringning yonboshiga yostiqlik qo'yibdi. - Bu nodonlar sizning g'amingizda yurganimni bilmay, ustimdan arz qilishibdi.

Bo'ri tovuqlarni tiriqtirib quvibdi. "Tulki o'z ishini bilib qiladi", deb urishibdi. Shu kuni kechasi uch tovuqning sho'ri quribdi. Ertasiga tovuqlar tozi itga arzga borishibdi. Tulki unga ham paryostiqlik olib boribdi. Biroq tozi it yostiqlikka qarab ham qo'ymabdi.

- Bu shum tulkining sho'rini quritinglar, - degan ekan, itlar tulkini rosa talashibdi. - Uni cho'lga quvinglar. Bo'lmasa u tovuqlarni qiyratib, patidan paryostiqlik tayyorlab, ishini bitirib yuraveradi.

Shu-shu tulki cho'lga badarg'a qilinibdi. Adolatli tozi itdan qurqib haligacha u bor joyga yaqin yo'lamas ekan.



O O

o o



N N

n n



A A

a a




L L

l l



T T

t t





M M

m m



WILD ANIMALS

Find necessary words on cross-words



LET'S CLAP

All together, clap and sing
All together, clap and sing
Let's play, let's skip, let's hop, let's sing,
Let's run, let's jump, let's clap, let's sing,
All together, clap and sing.



How many triangles?

How many circles?

How many rectangles?

How many squares?

WHAT COLOURS AND FIGURES DO YOU KNOW?

red



rectangle

blue



square

purple



circle

pink



rectangle

grey



triangle

brown



square

black



triangle

green



triangle

yellow



square

white



circle

orange



rectangle



Har bir matematik amallarning yonida to'g'ri va noto'g'ri javoblar berilgan. Javoblarning to'g'risini toping.

$2+2$	5				1	$7-7$
4	$5+9$	14			2	$9-7$
	13	$7+3$	9	5	$8-3$	3
		10			1	
		2			10	
	2	$8:2$	4	6	2×5	5
4	$10:5$	3			3	5×1
					12	6×2
$6:2$	3					



Etikda qanday sonlar bor?
Ushbu sonlarning yig'indisi nechaga teng?
Sonlarning shaklidan yana qanday narsalar yasay olasiz?



MATEMATIK JUMBOQLAR

1. Uch xonali sondan ikki xonali sonni olib bir xonali son hosil qiling.

2. Uchta tovuq 3 kunda 3 ta tuxum tug'di.
12 ta tovuq 12 kunda nechta tuxum tug'adi?



3. Hovlida yurgan itlar va o'rdaklarda 42 ta oyoq va 12 ta bosh bor.
Hovlida nechta it va nechta o'rdak bor?



4. Qo'llarda 10 ta barmoq bor.
10 ta qo'lda nechta barmoq bor?



SO'Z O'YINI

So'zlarning bosh harflarini topib,
o'z joyiga qo'ying.

....ol — Oldida tursa kamayadi,
Orqaga qo'ysa ko'payadi.

....ol — Sog' bo'lsang taomdir,
Kasal bo'lsang darmondir.

....ol — Doim boshi egilgan,
Salom berib suzilgan.

....o'z — ko'zguga o'xshaydi.

....o'z — go'zallikni anglaydi.

Jumboqlarning
javobini bilasanmi?

Bilaman-u, lekin
aytmayman!

So'zlarning bir harfi o'zgarishi bilan
ma'nosi o'zgarib ketadi, ularni toping-chi?!

1. U "L" bilan chechakdir,
"X" bo'lganda - qarindosh!
"B"-la atak-chechakdir,
"N" - esa dard etar fosh!

2. "Q" qochdi-yu, hayvon bo'ldi,
"R" harfi bilan suvga to'ldi!

....uz — mazali ta'b beradi.

....un — serunum va maroqli

....un — osoyishta, hordiq beradi.

....un — doimo issiq.

....o'n — milliylik ramzi.





Ergasheva Shoxsanam.
26-maktab o'quvchisi.
Ishtixon t.



Maxmaraximova Marjona.
1-maktab o'quvchisi
Samarqand sh.



Sharipova Xosiyat. 1-maktab
o'quvchisi. Samarqand sh.



Karimov Muhammadsaid
35-maktab o'quvchisi.
Samarqand sh.



Zoxidov Sardor.
45- maktab o'quvchisi.
Samarqand sh.



Maxmudova Mehrangiz.
11- maktab o'quvchisi
Samarqand sh.

Aziz bolajonlar! Filni sirkka yetib olishida yordam bering.



+ =



+ =



+ =



+ =



REBUS

Aziz bolajonlar! Berilgan suratlarga qanday qo'shimchalar qo'shib, yangi so'zlar yaratsa bo'ladi?



Pufak

Sal maqtovga
Uchaverar.
Puf desang bas
Shishaverar.

"O'qimishli xo'roz"

Kulmang, ota-bobomiz
Sal savodsiz bo'lishgan.
Agar biz qichqirmasak,
Tong otmaydi deyishgan.

Tan olamiz: bizsiz ham
Har doim tong otadi.
Lekin, bu ko'hna olam
Uyg'onolmay yotadi.



Toshbaqa

- Og'irmasmi, Toshbaqa
Doim yelkangda toshing?
- Bu tosh qancha ofatdan
Omon saqlaydi boshim.

To'g'ri aytgan odamlar,
To'g'ri so'z hech o'lmaydi.
Do'stim kerakli toshning
Og'irligi bo'lmaydi.



TOPISHMOQLARNING JAVOBINI TOPING

1. Baliqning eng ochofati,
O'tkir jag'i jon ofati!



2. Puldek sanaydi vaqtni,
Egallab baland taxtni.




3. Yerga yashil poyondozi,
Suruv unda butun yoz!



4. Kulcha bulib yotar u,
Tegsang o'zin otar u.



5. Baliq unga nevara,
Kiftida-chi – favvora!



6. Yo'qdir tuynuk-teshigi,
Jo'janing ilk beshigi!



**ЗИМА****ВЕСНА****ЛЕТО****ОСЕНЬ**

ДЕДМОРОЗ

ПРОХЛАДНО

ДОЖДЬ

ХЛОПОК

КАНИКУЛЫ

ЖАРА

УРОЖАЙ

ХЛОПОК

ЗЕЛЕНЬ

СУМАЛАК

МОРОЗ

ТЕПЛО

ЛЁД

ВИНОГРАД

БАССЕЙН

СВЕКЛА

СНЕГ

ЗАГАДКИ

Вышла молодка,
Лицом красна,
Взглядом ясна,
Время придет —
Похудеет, пропадет.



Разноцветною дугою
Дождь на небе остается,
На дуге играет солнце,
То оранжевым коснется,
То голубенькой рекою,
Желтым, красным, синим льется
Фиолетовым смеется.

Подберите нужные слова к временам года:

ЗИМА	ВЕСНА	ЛЕТО	ОСЕНЬ
снег	тепло	бассейн	свекла

'Kutilmagan sovg'a'

tanlovining sentabr oyi g'oliblari bilan tanishing:

1. Safarova Jasmina va Safarov Zahridin.

Jizzax viloyati, Arnasoy tumani, Bobur mahallasi F.Xo'jayev ko'chasi 9/1 uy.

2. Hazratqulov Fazliddin.

Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Qorateri qishlog'i, 33-maktab o'quvchisi.

3. Zoxidov Sardor.

Samarqand shahar 45-maktab o'quvchisi.


Aziz bolajonlar! Siz ham tahririyatga maktub yozing va tanlovda ishtirok eting. Tanlovda albatta g'olib bo'lib, "kutilmagan sovg'a" egasiga aylanasiz. Maktubda manzilingiz va maktab raqamingiz aniq ko'rsatilgan bo'lsin.

G'oliblarga "kutilmagan sovg'a" pochta orqali jo'natiladi. Sovg'amiz sizga yoqadi, deb o'ylaymiz.

Yelimqog'ozdan sherning rasmni olib, yopishtiring va unga qarab rasmni bo'yang.



MUSHUKCHA



Ushbu rasmning rangli qismlarini yelim-qog'ozdan kesib, o'z joyiga joylashtiring.



Sahifalar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Yoshlar bo'limi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

Ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy nashr

Jurnal oyda bir marta chiqadi

MUASSIS:

"Matbuot info media servis" MChJ

Bosh muharrir, loyiha muallifi:

Nodir YUSUPOV

TAHRIR HAY'ATI:

Iqbol MIRZO (hay'at raisi)

Shermat YORMATOV

Bahodir SHAROFOV

Vohid LUQMON

Orif TO'XTASH

Nodir JONUZOQ

Jurnal 03.12.2013 y. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 0832 raqamli guvohnoma olgan.

Tahririyat manzili:

100011. Toshkent shahri, A.Navoiy ko'chasi, 16^{-A} uy, 415-xona. Tel: 8(595) 196-58-34;

"Sano Standart" MChJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Olmazor tumani Shiroq ko'chasi 100-uy.

Buyurtma raqami - Bichimi - 70/100 1/16 Nuxsasi - 7000

Jurnal "Erkatoy" tahririyati kompyuterlarida sahifalandi. Sahifalovchi: Anvarjon MIRZAALIYEV

Jurnal qahramonlari suratlaridan foydalanish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirildi.

ERKATOY

BOLALAR JURNALLARI



RASMLAR

O'YINLAR



ERTAKLAR

SHE'RLAR



TANLOVLAR

O'ZBEK tilida
OBUNA INDEKSI

882

INGLIZ tilida
OBUNA INDEKSI

967

**OBUNA BO'LING,
JURNALLAR SIZNIKI BO'LADI!**



Guvohnoma: 0832



ISSN 2181-7456



Rasmlardagi 5 ta
farqni toping